



TIIAME

1991 – 2017-YILLARDA BOLTIQBO‘YI DAVLATLARI

Reja:

1. Latviya.
2. Litva.
3. Estoniya.



Tayanch iboralar

- Demografiya – bu aholi va uning ko‘payish qonuniyatlari to‘g‘risidagi fan. U aholining son jihatidan tarkibi, uning o‘zgarishi, joylashishi va shu kabilarni o‘rganadi.
- Logistika – bu tovarlar, yuklar va shu kabilarni bir hududdan boshqasiga yetkazib berishning tizimini tashkil qilish.

Latviya

- **Latviya** (Latvija), Latviya Respublikasi (Latvijas Republika) — Yevropaning shimoli-gʻarbida, Boltiq dengizi boʻyida joylashgan davlat. Maydoni 64,589 ming km². Aholisi 2, 385 mln. kishi (2001). Poytaxti — Riga shahri. Maʼmuriy jihatdan 26 tuman (rajons)ra boʻlinadi, 7 shahar bor.
- 1988-yili tuzilgan Latviya Xalq fronti mustaqillik uchun kurash boshladi. Natijada 1990-yil 4-mayda Latviya oʻz mustaqilligini eʼlon qildi.





Latviya




- Latviya — mustaqil demokratik respublika. 1993 yil 6 iyuldan 1922 yilda qabul qilingan "Satversme" konstitutsiyasining amal qilishi to'la hajmda tiklandi va unga 1996, 1997, 1998 yillarda tuzatishlar kiritildi.
- Davlat boshlig'i — prezident (1999 yildan Vayra Vike-Freyberga), u yashirin ovoz berish yo'li bilan seym tomonidan 4 yil muddatga saylandi.
- Bir shaxs ketma-ket ikki muddatdan ortiq prezident lavozimiga saylanishi mumkin emas. Qonun chiqaruvchi organi — seym (bir palatali parlament). Ijroiya hokimiyatini Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi.



Latviya davlat ramzlari



TIAME





Latviya



- Raymonds Veyonis
(2015-2019)
yillarda
Latviya
Prezidenti





Latviya



- 2004-yilda NATOga, shu yili YIga a'zo bo'ldi.
- G'arb davlatlarining investitsiyalari jadal iqtisodiy o'sishga olib keldi.
- Ammo 2008-yilgi inqiroz chet el investitsiyalariga to'liq qaram bo'lgan mamlakat iqtisodining o'ta beqarorligini ko'rsatdi va katta zarar yetkazdi. Latviyada iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari tushib ketdi.
- 2010-yilga kelib mamlakat yalpi milliy mahsuloti hajmi 1990-yilgi ko'r sat kichga ham yetmadi.



Latviya



- Mustaqillik yillarida sovetlar davrida bu yerga ko‘chib kelgan rusiyzabon aholiga va ularning avlod lariga Latviya fu qaroligi berilmadi. Rusiyzabon aholi hozir Latviya aholisining 30%ini tashkil qilmoqda. Mamlakatda latish va rus millatiga mansub fuqarolar o‘rtasida munosabat ham tarangligicha qolmoqda

Litva

- **Litva (Lituania, Litovia, Litova, Litva, Lithuania, (litovski) Lietuva)** — Sharqiy Yevropada, Boltik, dengizi bo'yida joylashgan davlat. Maydoni 65,2 ming km². Aholisi 2,986 ming kishi (2012). Poytaxti — Vilnyus shahri. Ma'muriy jihatdan 44 tuman (rajonas)ra bo'linadi.





Litva



- 1988-yil iyunda Litvada «Sayudis» («Harakat») tashkiloti tuzildi va o‘z oldiga Litvaning mustaqillikka erishishini ta’minlash vazifasini qo‘ydi



Litva




- 1990-yil 11-martda Litva Oliy Soveti Litva Respublikasining mustaqilligini e'lon qildi. Ammo mustaqillik osonlikcha qo'lga kiritilmadi. 1991-yil 13-yanvar kuni Vilnyusda mustaqillikni qo'llab o'tkazilgan namoyishda teleminora va parlament binosini sovet qo'shinlaridan himoya qilgan 14 nafar namoyishchi halok bo'ldi. Shu davrdan Litva bilan tugab borayotgan SSSR rahbarlari o'rtasidagi munosabatlar deyarli uzildi.



Litva davlat ramzlari



TIAME





Litva



- Respublikaning etnik tarkibi Latviya va Estoniyaga nisbatan bir xilligi bilan ajralib turadi. Aholining 90% ga yaqinini litvaliklar tashkil qiladi. Shu sababli mustaqillikdan soʻng mamlakatda yashovchi barcha aholiga millatidan qatʼiy nazar Litva fuqaroligi berildi. Litva ham 2008-yildan keyin ogʻir ijtimoiy-iqtisodiy inqirozni boshdan kechirdi. 2010-yili ishsizlar soni 20% ga yaqinlashdi



Estoniya



- **Estoniya**, Estoniya Respublikasi — Sharqiy Yevropada, Boltiq dengizi boʻyidagi davlat. Maydoni 45,2 ming km². Aholisi 1,408 mln. kishi (2003). Poytaxti — Tallin shahri. Maʼmuriy jihatdan 15 uyezdga boʻlinadi.
- Estoniya — parlamentli respublika. Amaldagi konstitutsiyasi 1992 yil 3 iyulda kuchga kirgan. Davlat boshligʻi — prezident (2001 yildan Arnold Ryuytel), u Davlat kengashi tomonidan yashirin ovoz berish yoʻli bilan 5 yil muddatga saylanadi. Ketmaket ikki muddatga saylanishi mumkin. Qonun chiqaruvchi hokimiyatni 1 palatali parlament — Davlat kengashi (Riygikogu), ijrochi hokimiyatni bosh vazir boshchiligidagi hukumat amalga oshiradi.

Estoniya

- Estoniyada «Xalq fronti» 1988-yili tashkil qilindi. “Jilmayuvchi qo’zg’olon” nomi bilan mashhur bo’ldi. U qayta qurishni qo’llab-quvvatlashini e’lon qilib, respublikaning SSSR tarkibidan chiqishini o’zining ochiq vazifasi qilib qo’ymadi.
- 1988-yil 16-noyabrda Estoniya Oliy Soveti «Estoniya SSRning davlat suvereniteti to’g’risida deklaratsiya»ni qabul qildi.



Estoniya gerbi



Estoniya bayrog'i





Estoniya



- Estoniya ham sovet davrida jadal industrlashtirildi. Ko‘plab malakali ishchilarning jalb qilinishi mamlakatdagi demografik va etnik holatni o‘zgartirdi. Mamlakat aholisida estonlarning ulushi qisqarib bordi, aholining ancha qismini ruslar tashkil qildi. Mustaqillik e‘lon qilingandan so‘ng Estoniya ruslarning fuqarolik olishlariga to‘siq bo‘luvchi qat’iy qonunlar qabul qildi.

Estoniya

- Shoir, siyosiy arbob Lennart Meri 1996 yil qayta Prezidentlikka saylandi. Mamlakatda islohotlarni kuchaytirdi. Mamlakatni elektronlashtirdi.



Estoniya

- Estoniya Oliy Kengashi Prezidiumi (1983–90), Estoniya Oliy Kengashi (1990–92) raisi. 2001 yil sentabrdan Estoniya Respublikasi prezidenti. Shuningdek, Jahon "Yashil xoch" tashkilotining Estoniya boʻlimi va "Estoniya sohili va dengizi" harakati raisi.





Estoniya



2016 yil 10
oktyavrdan
Estoniya
prezidenti Kersti
Kalyulayd





Estoniya



- Estoniyada (umuman Boltiqbo‘yi davlatlarida) sovet davri, ayniqsa, urush davridan qolgan yodgorliklarni yo‘q qilish yoki shahar chekkasiga ko‘chirish Rossiyaning noroziligiga sabab bo‘lib, ikki tomon munosabatlarida katta muammolarni keltirib chiqarmoqda. 2011-yili rusiyzabon aholi vakillari bilan eston politsiyasi o‘rtasida bo‘lib o‘tgan to‘qnashuvda 1 kishi halok bo‘ldi, ko‘plar yaralandi. Qiyinchiliklarga qaramasdan, Boltiqbo‘yi mamlakatlari Yevroitti foqqa integratsiyalashuv yo‘lidan ketmoqda. Ularning barchasi yevro pul birligi hududiga kirgan.



Uyga vazifa

- 1. Mustaqillik yillarida Boltiqboʻyi davlatlari Gʻarb bilan munosabatlarda qanday yoʻldan bordi?
- 2. Mustaqillik yillari Latviya qanday iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga duch keldi?
- 3. Litva Respublikasi qanday jihatlari bilan Latviya va Estoniyadan farq qiladi?
- 4. Estoniya bilan Rossiya oʻrtasidagi munosabatlarda qanday muammolar mavjud?